O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHLARI VA XALQARO TAJRIBALAR

Izzatullayeva Niginabonu Xasanovna
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi
Yurisprudensiya yo'nalishi 102-guruh talabasi
Telefon:+998(93) 553 70 99
izzatullayevaniginabonu21@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23843577

Annotatsiya: Davlatimiz Konstitutsiyasini isloh qilish bosqichlari va unga mos xalqaro tajribalardan foydalanish.

Kalit so'zlar: Davlatning asosiy qonuni, referendum va yangilanish jarayoni.

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyoda strategik o'rin egallayotgan mamlakatdir va uning Konstitutsiyasiga davlatning asosiy qonun hujjati sifatida qaraladi. Chunki u, boshqa qonunlarga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, fuqarolarning o'zini tutishini, hayotning har xil sohalari bo'yicha eng muhim qoidalarni belgilab beradigan qonunlar Konstitutsiyaga asoslanib tuziladi va qabul qilinadi. Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprel kuni "Meniki, seniki, barchamizniki" shiori ostida o'tkazilgan referendum natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida" O'RQ - 837-sonli qonuni qabul qilindi va 2023-yil 1-may sanasidan kuchga kirdi. Yangilanish jarayonida xalq tomonidan 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi va bularning barchasi yetarlicha o'rganib chiqilib inobatga olindi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining takomillashtirish bosqichlari davlat va jamiyatning o'zgaruvchanlik va rivojlanish jarayonlariga mos keladigan muhim qadriyatdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, barcha siyosiy kuchlar, jamiyat tashkilotlari va fuqarolar Konstitutsiyani takomillashtirish bo'yicha o'zaro munosabatlarini yanada mustahkam qilishda muhim rol o'ynaydi. Chunki "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamalakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega"[1] Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega deganda - qonunchilik hujjatlarining ierarxiyasida eng yuqori o'rinda turishi tushuniladi. Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish bosqichlari va xalqaro tajribalar, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada mustahkam qilish, huquqiy tartibni, demokratiyani, tenglikni va inson huquqlarini ta'minlashda o'z maqsad va vazifalariga muvofiq olib borilayotgan jarayonlardir. Hali antik davrdayoq Suqrot, Arastu, Aflotun kabi yunon faylasuflari tenglik hamda adolat hukm surgan ideal jamiyat va davlat haqida mushohada yuritgan va "Eng yaxshi qonunlar - barchaning tengligini kafolatlagan qonunlardir" degan g'oyani ilgari surgan.Takomillashtirishning ilk bosqichi, Konstitutsiyani o'zgartirishga oid bo'lgan g'oyalar yig'ilmasini tashkil etadi. Bu yig'ilma davlat organlarining, ilmiy jamiyatning va fuqarolar tomonidan kelishilgan masalalarni muzokaraga olib keladi. Ikkinchi bosqich, Konstitutsiyani o'zgartirish loyihasini ishlab chiqish va uni Oliy Majlisga taqdim etishdir. Bu bosqichda jamiyat va fuqarolar ham muhim rollarga egadir. Uchinchi bosqich esa, Konstitutsiyadagi o'zgartirilishi lozim bo'lgan loyihalarini Oliy

[1] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 15-moddasi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Majlisga taqdim qilish va uni ijtimoiy muhokama qilish jarayonidir. Bu bosqichda ommaviy muzokaralar olib borilib mediamavzular, aholi tashabbusi va yuqori saviyadagi siyosiy tashkilotlar muhimdir. Keyingi bosqich esa, Konstitutsiyadagi o'zgartirish loyihalarini "referendum" orqali mustahkamlash va Konstitutsiyani o'zgartirishga ovoz berish jarayonidir. Bu jarayonda barcha fuqarolar o'zining fikrini ifodalashi va qonunchilikdagi tuzatishlarda ishtirok etishlari kerak. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida "Bosh maqsadimiz - har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir" deb ta'kidlagan edi.[2]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish bosqichlarida xalqaro tajribalar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, O'zbekiston o'zining milliy tajribalarini va hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida xalqaro tajribalardan foydalanadi. Ikkinchidan, O'zbekiston Konstitutsiyasini takomillashtirish bosqichlarida xalqaro tajribalar mamlakatning demokratik va huquqiy tartibini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, xalqaro tajribalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini takomillashtirish bosqichlarida demokratik uslublar, huquqiy tartib, inson huquqlari va erkinliklarni yanada kuchaytirishga ko'maklashadi. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston - huquqiy davlat, deb belgilangan.[3] Mazkur loyihaga asosan Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Turkiya konstitutsiyalarida o'z davlatini huquqiy davlat deb belgilashga oid normalar mustahkamlangan. Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Turkiya davlatlarining konstitutsiyalarida mustahkamlangan ijtimoiy davlat prinsiplari asosida "O'zbekiston - ijtimoiy davlat"[4] tamoyili belgilandi. O'zbekistondagi 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyati O'zbekistonni dunyoviy davlat sifatida belgilashga asos bo'la oladi. Dunyoviy davlat prinsiplari ko'plab xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida mavjud. Jumladan, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston konstitutsiyalarida ushbu prinsip belgilangan bo'lib jamiyat taraqqiyoti uchun samarali yo'l hisoblanadi. Shuningdek yangi Konstitutsiyamizda yoshlar huquqlariga oid eng muhim 5 ta yangilikni ham o'z ichiga olgan bo'lib bular: Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlarini himoya qilinishini ta'minlaydi, yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi, yoshlarning intellectual, ijodiy, jismoniy va ahloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek davlat va jamiyat yoshlerda milliy va umuminsoniy qadryatlarga sodiqlikni, mamlakatidan va xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishi, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Davlat yoshlarning ta'lim olishiga, sog'lig'ini saqlashga, uy=joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi-inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir. Konstitutsiyamiz bizning tayanchimiz va ishonchli qonunimiz hisoblanadi. Yurtboshimiz Shavkkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida shunday deydi "Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yorqin ifodasi bo'ladigan yangillanayotgan Konsititutsiyamizga tayanib, Yangi O'zbekistonni albatta birgalikda barpo etamiz." Bundan kelib chiqadiki, mamalakatimizda Konstitutsiyaviy islohotning o'rni beqiyos va bu orqali biz ko'plab yutuqlarga erishamiz. Konstiutsiyaviy islohot bugunning talabi, ertaning kafolati!

[2] "Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob"4-bet.
[3] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasi.
[4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida" O'RQ-837-son Konstitutsiyaviy qonun.
3. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi O'zbekiston Respublikasi adliya Vazirligi huzuridagi "Adolat" nashriyoti.
4. Yuridik_ta'lim.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.